

JINOYAT PROTSESSUAL QONUNCHILIGIDA HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINING AMALIY AHAMIYATI

Baxtiyorov Shohjahon O‘tkirjonovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

E-mail: baxtiyorovshohjahon006@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada huquqiy ong tushunchasining ijtimoiy va falsafiy jihatlari o‘rganilib, tahlil qilingan. Shuning bilan birgalikda, ushbu nazariyani o‘rganishda turli faylasuf olimlarning va zamonaviy huquq faniga hissa qo‘shgan olimlarning tadqiqotlari o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:** harakatlar strategiyasi, ongning maqsadi, huquq, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, nazariy tahlil, huquqiy ong sistemasi, huquqiy munosabatlar, ong darajalari.*

Bugun biz yashayotgan fuqarolik demokratik jamiyatda insonlarning farovon yashashlari, shaxs sifatida o‘zini namoyon qilishi va davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan huquqlaridan foydalanishlari va majburiyatlarini anglashi uchun eng avvalo, har bir fuqarolda huquqiy ong rivojlangan bo‘lishi lozim. Huquqiy sohada olib borilayotgan islohotlarning zamirida ham ana shu maqsadlar yotadi. Umuman olganda olib borilayotgan tub islohotlarimizning eng muhim sharti ham jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta‘minlash va qonuniylikni mustahkamlash hisoblanadi.

Shuning ma‘noda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish borasida keng ishlar olib borilmoqda. “2017 -yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmoni, 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta‘minlash to‘g‘risida”gi

qonun, 2018- yil 13- apreldagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora -tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni, 2019- yil 9- yanvardag “ Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident farmoni va boshqa me‘yoriy - huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi” fikrimizning tasdig‘idir¹. Bu ijtimoiy kategoriyani jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga erishish, uni insonlar ongi va tafakkurida nuqim joy olishini ta‘minlash uchun eng avvalo, uni ilmiy tahlil qilish va ilmiy- falsafiy ildizlari bilan tanishib chiqishimiz lozim.

Huquqiy ong tushunchasi ma‘no jihatidan keng qamrovli, tasniflash va tahlil qilish murakkab bo‘ldan tushuncha hisoblanadi. Ijtimoiy ongning bir shakli sifatida falsafiy fanlarda o‘rganiladigan bu tushuncha huquqiy fanlar, sotsiologiya va psixologiyaning ham muhim ob‘ektlaridan biri hisoblanadi. Bu tushunchani tub ma‘nolarini o‘rganish va tahlil qilish uchun eng avvalo ong tushunchasiga to‘xtalish lozim. Ijtimoiy fanlar tarixida inson ongi to‘g‘risida g‘oyalar asrlar davomida turli olimlarning ta‘limotlarida va ilgari surgan g‘oyalarida shakllanib borgan. J.Lokk tomonidan ilgari surilgan “ongning asosiy maqsadi”² haqidagi, yoki bo‘lmasa, G.Leybnisning "o‘z-o‘zini anglash" kontseptsiyasi³, E. Dyurkgeym "ijtimoiy (individualdan tashqari) ong" ning mavjudligi to‘g‘risidagi qarashlari[4], G.Gegelning “antropogenez va ong” haqidagi qarashlari”⁴ ushbu masalani kengroq ilmiy tahlil qilishga turtki bo‘lgan tadqiqotlar hisoblanadi. Ong hususida

¹ Aholining huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yanada yuksaltirishning huquqiy asoslari. E.Qodirov //Aholining huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy ongni oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘rni va roli mavzusida tashkil etilgan davra suhbat materiallari. - T.:Toshkent tezkor bosmaxonasi, 2015, 20-b.

² Локк Дж. Сочинения в 3-х т. Т.1. Опыт о человеческом разумении.(Философское наследие. Т.93).-М.: Мысль, 1985.- 621с.-С.3-76.

³ Философский словарь / Под ред. И.Т. Фролова. - 4-е изд.-М.: Политиздат, 1981. - 445 с.

⁴ Hegel.G.W.F.Phänomenologie des Geistes. (1807). Berlin-52-p.

tadqiqotlarni o‘rganib quyidagi xulosalarga kelish mumkin. - ong - bu voqelikni inson psixik olamida aks ettirishning eng yuqori shakli; - ong - bu doimiy holatda faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan psixik jarayon; - ong o‘z navbatida yagona bo‘linmas ma‘naviy shakllanishdir hamdir; - ong - bu ham tafakkur uslubi va ob‘ektiv borlikda mavjud bo‘lgan haqiqat bilan aloqalar tizimi hamdir.

Ongning hususiyatlari ichida xulq-atvorni tartibga solishning borligi va ijtimoiy ongda bu bir alohida shaklga ya‘ni huquqiy ong shakliga kelganligi ko‘plab tadqiqotlarning natijalaridan bizga ma‘lum. Jumladan, mamlakatimiz olimlarining bir qatot tadqiqotlari ham shu mavzuga qaratilgandir. Masalan, Z, Islomovning fikricha, “Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g‘oyalar, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta‘riflash mumkin”⁵. Huquqiy ongni tadqiq qilish ishi XX asrda rus olimlari tomonidan ko‘plab tadqiqotlari olib borilgan va ularda xilma-xil qarashlarni uchratishimiz mumkin. Masalan Y.Dmitrievning fikricha: “Huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g‘oyalari, tasavvurlari yig‘indisidir”⁶. Jamiyatning rivojlanishi, N.M.Korkunovning fikriga “huquqiy ong jamiyatning ideallari bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyatning ideallarni, shu jumladan huquqiy ideallarni yaratish qobiliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, u shunchalik ilg‘or bo‘ladi. Qonun inson hayotining eng yuqori qadriyatlaridan biri sifatida tushunila boshlanadi”⁷.

⁵ Кареев Н. И. Основы русской социологии. СПб., 1996. С. 123-142.

⁶ Hegel.G.W.F.Phänomenologie des Geistes. (1807). Berlin-52-p.

⁷ Дюркгейм Э.О разделении общественного труда / Пер. с фр. А.Б. Гофмана, примечания В.В. Сапова. — М.: Канон, 1996. — 432 с.

Boshqa ijtimoiy ong shakllari kabi huquqiy ong ham o'zining strukturasi va o'z tizimiga ega. Bu buammoni o'rganish ijtimoiy fanlar ichida yuridik psixologiya uchun xosroq mavzudir. Huquqiy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, huquqiy ong - bu amaldagi qonun va u qanday bo'lishi kerakligi to'g'risida odamlarning yoki shaxsning qarashlari, g'oyalari, baholari tizimidir. Yuridik ma'noda shuni ta'kidlash kerakki, inson o'zini huquq va erkinliklarning to'la huquqli tashuvchisi yoki buzilgan shaxs sifatida bilishi, ba'zi bir huquq va erkinliklarda cheklanganligi to'g'risida xabardorligi huquqiy ongning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Huquqiy ong huquqiy faoliyatga, ya'ni insonning o'z huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan harakatlariga ta'sir qiladi. Huquqiy ong fuqarolik jamiyatining huquqiy hayotining asoslaridan biri desak to'g'ri bo'ladi. Sababiki, ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida huquqiy ongning shakllanishi va rivojlanishiga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy omillar ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy ong - bu huquq haqidagi bilim, amaldagi qonunni baholash, qonunchilikdagi kerakli o'zgarishlar haqida fikr va g'oyalar tizimidir. Huquqiy ong, shuningdek, davlatning barcha huquqiy tizimiga ta'sir o'tkazish vositasi sifatida ishlaydi. Jamiyatda tug'ilgan inson ijtimoiylashuv jarayonida barcha o'zidan oldindi avlodlar tomonidan yaratilgan qadriyatlarni o'zlashtiradi, shuning uchun jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonida huquqiy ong ob'ektivlashadi.

Huquqiy ong va biron bir jamiyatda shakllangan huquqiy tizim o'zro bir-biriga ta'sirda bo'ladi. Bir tomondan, huquqiy ong qonunlarga bog'liq holda rivoj topib borsa, boshqa tomondan, ushbu jamiyatda shakllangan huquqiy tizim huquqiy ongga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Huquqiy ongning tuzilishini hisobga olgan holda, odatda, odatiy yoki kundalik huquqiy ong va nazariy huquqiy ong darjalariga ajratish o‘rinlidir.

Huquqiy ongning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, u individual tajriba doirasidan tashqariga chiqmaydi. Shuning uchun u o‘z rivojlanishida aniqlangan ob‘ektiv ijtimoiy qonuniyatlarni yanada kengroq umumlashtirish darajasiga intiladi, ya‘ni nazariy bo‘ladi. Nazariy huquqiy ongda uchta qatlam mavjud: yuristlarning kasbiy huquqiy ongi, huquqiy nazariyaning o‘zi va huquqiy mafkura. Nazariy huquqiy ong amaldagi va rivojlanayotgan huquqiy tizimni ma‘naviy ravishda ko‘paytiradigan ilmiy tushunchalar tizimiga o‘xshaydi. Huquqiy ongning har xil turlari mavjud, ularni bir necha asoslarga ko‘ra tasniflash mumkin: tuzilishi (huquqiy g‘oyalari va huquqiy tuyg‘ulari), darajasi (ilmiy, kasbiy, kundalik), sub‘ektlari (ommaviy, guruh, individual) va boshqalar bo‘yicha tasniflash mumkin. ma‘lum bir jamiyatda mavjud bo‘lgan va uning huquqiy haqiqatining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan g‘oyalar, qarashlar, fikrlar, nazariyalar⁸.

Shunday qilib, huquqiy ongni tizim sifatida o‘rganishda uning quyidagi elementlari borligiga etibor qaratish lozim:

- huquq;
- ustuvor prinsiplar ustuvorligi;
- huquqni muhofaza qilish organlari mansabdor shaxslari;
- huquqiy munosabat;
- shaxsning huquqiy savodxonligi

O‘zining eng umumiy ma‘nosida huquqiy ong - bu odamlarning qonunga bo‘lgan munosabatidir. Huquqiy ong - bu axloqiy me‘yorlar bilan bir qatorda

⁸ Локк Дж. Сочинения в 3-х т. Т.1. Опыт о человеческом разумении.(Философское наследие. Т.93).-М.: Мысль, 1985.- 621с.-С.3-76.

jamiyat a'zolarining xatti-harakatlarini tartibga soluvchi qadriyatlarni baholash tizimi. Huquqiy ongning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bu odamlarning tabiiy huquq qadriyatlari, inson huquqlari va erkinliklari va shu bilan birga mavjud pozitiv huquq haqidagi tasavvurlari, uning jamiyat ehtiyojlariga, huquqiy va umumbashariy inson ideallari va qadriyatlariga qanday mos kelishini anglashdir.

Shunday qilib huquqiy ongning mazmuni ko'p qirrali bo'lib, shaxsning qonunga va huquqiy hodisalarga, jamiyatdagi o'zaro munosabatlar qoidalari va me'yorlariga va ularning adolat tamoyillariga muvofiqligini belgilaydigan va aks ettiradigan ko'plab qarashlar, g'oyalar to'plami bo'lganligi bilan tavsiflanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aholining huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yanada yuksaltirishning huquqiy asoslari. E.Qodirov //Aholining huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy ongni oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli mavzusida tashkil etilgan davra suhbat materiallari. - T.:Toshkent tezkor bosmaxonasi, 2015, 20-b.

2. Локк Дж. Сочинения в 3-х т. Т.1. Опыт о человеческом разумении.(Философское наследие. Т.93).-М.: Мысль, 1985.- 621с.-С.3-76.

3. Философский словарь / Под ред. И.Т. Фролова. - 4-е изд.-М.: Политиздат, 1981. - 445 с.

4. Дюркгейм Э.О разделении общественного труда / Пер. с фр. А.Б. Гофмана, примечания В.В. Сапова. — М.: Канон, 1996. — 432 с.

5. Hegel.G.W.F.Phänomenologie des Geistes. (1807). Berlin-52-p.

6. Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi.-T.: Adolat, 2007.-537-b.
7. Ю.А.Дмитриев.Правосознание и правовая культураю / Теория государства и права.Под.ред.Пиголкина. - Москва:Юрайт - Издат, 2006.- С. 547.
8. Кареев Н. И. Основы русской социологии. СПб., 1996. С. 123-142.